

## GEOGRAFIK NOMLARNI O‘RGANISHNING EKOLOGIK-GEOGRAFIK JIHATLARI

Madraximov Ablazbek Erkinjon o‘g‘li  
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti  
[a.madraximov1994@gmail.com](mailto:a.madraximov1994@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15169402>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada geografik nomlarni o‘rganishning ekologik-geografik jihatlari tadqiq etgan olimlarning ilmiy qarashlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, shuningdek, geografik nomlarni o‘rganishning barchaga ma‘lum bo‘lgan tabiiy-geografik, lingvistik, mahalliy geografik terminlarning mintaqaviy jihatlari tashqari geografik nomlarni o‘rganishning ekologik bilimlar yo‘nalishida tadqiq olib borgan olimlarning ilmiy merosi o‘rganilgan, taxlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologik funktsiya bajaruvchi geografik nomlar, geografik terminshunoslik va toponimika, mahalliy geografik terminlar, E.Murzayev, H.Hasanov, S.Qorayev, M.Mirakmalov, Q.Seytniyazov, Y.Ahmadaliyev, X. Xanmagomedov.

**Annotation:** This article reviews the scientific views of scientists who have studied the ecological-geographical aspects of the study of geographical names, and also studies and analyzes the scientific heritage of scientists who have conducted research in the area of ecological knowledge of the study of geographical names, in addition to the well-known natural-geographical, linguistic, and regional aspects of local geographical terms.

**Keywords:** geographical names that perform ecological functions, geographical terminology and toponymy, local geographical terms, E.Murzayev, H.Hasanov, S.Qorayev, M.Mirakmalov, Q.Seytniyazov, Y.Ahmadaliyev, H. Khanmagomedov.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются научные взгляды ученых, изучавших эколого-географические аспекты изучения географических названий, а также изучается и анализируется научное наследие ученых, проводивших исследования в области экологических знаний изучения географических названий, помимо общеизвестных естественно-географических, лингвистических и региональных аспектов изучения местных географических названий.

**Ключевые слова:** географические названия, выполняющие экологические функции, географическая терминология и топонимика, местные географические термины, Э.Мурзаев, Х.Хасанов, С.Қараев, М.Миракмалов, Қ.Сейтниязов, Ю.Ахмадалиев, Х.Ханмагомедов.

**Kirish.** Joy nomlari biz yashab kelayotgan tabiat landshaftlarini shakllantirgan tabiiy, madaniy, tarixiy jihatlari shuningdek ma‘lum bir hududning o‘ziga xos xususiyatlari yani ekologik funktsiya bajaruvchi geografik nomlarini shu bilan bir qatorda relyef, o‘simlik va hayvonot dunyosi to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar beradi. Geografik nomlar xaritaning asosiy elementi bo‘lib, hududiy bog‘liqligi, toponim adresni, manzilni ko‘rsatib berishi bilan bir qatorda odamlar va ularning atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zida aks ettirishi bilan ham ajralib turadi. Shu sababli geografik nomlarni asrab-avaylab, ularni kelajak avlodga yetkazib berish toponimika fanining oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

**Asosiy qism.** Geografik joy nomlarini o‘rganuvchi toponimika fani majmuaviy integral ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u asosan geografiya, filologiya (lingvistika) va tarix kabi fanlarning manfaatleri tutashgan joyda paydo bo‘ldi va ularni mujassamlashtirib rivojlanmoqda. Bu orqali Toponimika fani bir vaqtning o‘zida yuqoridagi kabi xar uchala fanga ham o‘rganish va tadqiq qilish manbai bo‘lib, xar bir fan tarmoqlarida jamlangan ma‘lumotlar bankidan, tadqiqot metodlaridan unumli foydalanishga sharoit yaratadi. Geografik nomlar va toponimika fani haqida taniqli toponimist geograf olim E.M.Murzayev: “Gazeta o‘qiganda ham, radio tinglaganda ham voqea va hodisalarni ko‘pincha geografik nomlarga bog‘lab uqib olamiz. Hozirgi zamon jamiyatini geografik nomlarsiz tasavvur etolmaymiz” [3], deb yozgan edi. Darhaqiqat bugungi kunda toponimlar insonlarning ijtimoiy hayotida katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda toponimlarning geografik jihatlarini tadqiq etishni boshlab bergan geograflardan biri g.f.d., professor H.Hasanov hisoblanadi. Olim geografiya fanining turli sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, ular ichida geografik atamashunoslik, transkripsiya va toponimikaga oid 100 dan ortiq salmoqli ilmiy ishlar muallifi hisoblanadi. H.Hasanovning o‘zbek xalq geografik terminlarini o‘rganish va bu terminlarning geografik nomlardagi ishtiroki haqida bergan mulohazalari toponimik tadqiqotlarda dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda [6].

Yurtimizda toponimika fanini rivojlanishiga katta xissa qo‘shgan olimlardan yana biri g.f.d., professor S.Qorayevdir. Olimning ilmiy faoliyatida joy nomlari tarkibida uchraydigan 120 dan ortiq mahalliy geografik terminlarni atroflicha izohlaydi [8]. Shuningdek olimning toponimikaga oid 30 dan ortiq asarlari mavjud.

Geografik terminshunoslik va toponimika sohasiga doir tadqiqotlarda M.T.Mirakmalov samarali ishlarni olib bordi. Olimning xalq geografik terminlariga bag‘ishlangan tadqiqot ishida terminlarning paydo bo‘lishi, shakllanish xususiyatlari, tarqalish areallari, ilmiy va adabiy manbalari, ulardan ilmiy adabiyotlarda joy nomlarini o‘rganishda foydalanish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan [2]. Shuningdek, M.Mirakmalovning O‘zbekiston toponimlarining tabiiy geografik xususiyatlari va geografik lingvistikaga bag‘ishlangan tadqiqotlari ham muhim ahamiyatga ega.

Q.M.Seytniyazovning ilmiy ishlari Qoraqalpog‘istonning o‘ng sohil shimoliy tumanlari joy nomlarini geografik jihatdan o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, joy nomlarini to‘plash, izohlash, qoraqalpoq xalq geografik terminlarining joy nomlaridagi ahamiyatini yoritish, guruhlashtirish va ulardan foydalanish masalalariga e‘tibor berilgan, toponimik kartalar yaratilgan [5].

Respublikamiz geograflari tomonidan toponimika sohasida keyingi yillarda bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari yaratildi, jumladan, Y.I.Ahmadaliyevning “Toponimika va geografik terminshunoslik” [1] “Farg‘ona viloyati toponimlari”

(2009), “Farg‘ona vodiysi: shahar, qishloq va mahalla nomlari” kabi A.Nizomovning “Toponimika” qo‘llanmalari nashr ettirildi [4]. A.Nizomovning “Toponimika” qo‘llanmasida ilk bora toponimikada stratigrafik qatlam tamoyilini kengaytirilgan holda asoslab bergan, respublika hududi sakkizta rayonga ajratib o‘rganilgan.

Geografik nomlarni ekologik jihatlarini o‘rgangan olimlardan biri X.L.Xanmagomedov hisoblanadi. Olim Shimoliy Kavkaz mintaqasi misolida geografik nomlarni ekologik nuqtai-nazardan yondashib, nomlash jarayonida o‘sha yerdagi tabiat sharoit – tog‘lar, vodiylar, o‘simlik hamda hayvonot dunyosining ahamiyatini ko‘rsatgan. Joy nomlari orqali mahalliy tabiat resurslaridan foydalanish tarixi, ekologik sharoitlar qanday o‘zgarib borganini aniqlash imkoni paydo bo‘lishini ta’kidlaydi [7].

**Xulosa** o‘rnida shuni aytish mumkinki, geografik nomlarning ekologik – geografik jihatlarini tadqiq etish bir nechta fanlar – geografiya, tilshunoslik, tarix, etnografiya – kesishmasida amalga oshiriladi. Zero, joy nomlarida mahalliy tabiat, xo‘jalik, iqlim sharoiti kabi omillar birday namoyon bo‘ladi. Yuqorida tilga olingan olimlarning asarlari geografik nomlarda saqlanib qolgan ekologik faktorlarni ochib berishda, tarixiy o‘zgarishlarni tahlil qilishda va mahalliy xalqlar madaniyati bilan bog‘liq mulohazalar bildirishda fundamental ahamiyatga egadir. Ular ishlab chiqqan nazariy uslublar kelgusi ilmiy ishlar uchun tayanch vazifasini bajarishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмадалиев Ю.И. Топонимика ва географик терминшунослик. Ўқув қўлланма. Фаргона, 2018. – 120 б.
2. Миракмалов М.Т. Табиий географик терминларнинг шаклланишида халқ (махаллий) атамаларнинг ўрни. фан. номз. ... дисс. – Т.: 1998.; Миракмалов М.Т. Халқ табиий географик терминлари (Монография). – Т.: Фан ва технология, 2009. – 176 б.
3. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М.: Мысль, 1974. – 382 с.
4. Низомов А. ва бошқ. Топонимика. – Т.: Шарқ, 2012. – 120 б.
5. Сейтнийзов К.М. Топонимы северных районов правобережья Каракалпакии. Автореф. ... дисс. канд. геогр. наук. –Ташкент, 1998. – С.9-13.
6. Ҳасанов Ҳ.Ҳ. Географик терминлар луғати. – Т.: Фан, 1964. – 73 б.
7. Ханмагомедов Х.Л., Махачева С.З., Гебекова А.Н. Экологическая топонимика Северного Кавказа // Тез. докл. конф. по итогам геогр. исследований в Дагестане. Вып. 24. Махачкала: Изд-во геогр. о-ва Дагестана, 1993. С. 97- 98.
8. Топонимика [Matn]: о‘quv qo‘llanma/ Q.М. Hakimov, M.Т. Mirakmalov. - Toshkent: “Tafakkur avlodi”, 2020. - 41 b.